

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobilij o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z or-nida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bos-qichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2019-y. ■ 2020-y.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 6 780 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 583 taga yoki 61,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 6 447 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 462 taga yoki 61,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 287 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 584 taga yoki 34,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati heklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 19 919 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 943 taga yoki 24,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 051 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 771 taga yoki 24,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 027 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53 taga yoki 1,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

8




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 582 tani tashkil etib, ulardan 565 tasi yoki 97,1 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 49 taga yoki 9,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 66 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining davlatlar kesimida soni**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

9




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar soni**
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- yil	2020- yil
Jami	516	565
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	51	69
Sanoat	281	290
Qurilish	35	36
Savdo	76	86
Tashish va saqlash	12	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18	16
Axborot va aloqa	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	6
Boshqa turlar	33	44

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

10



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	565	391	174
Samarqand sh	243	152	91
Kattaqo`rg`on sh	17	14	3
tumanlar:			
Oqdaryo	29	25	4
Bulung`ur	25	11	14
Jomboy	39	33	6
Ishtixon	14	7	7
Kattaqo`rg`on	11	10	1
Qo`srbabot	19	9	10
Narpay	4	3	1
Payariq	16	9	7
Pastdarg`om	29	22	7
Paxtachi	9	4	5
Samarqand	40	32	8
Nurobod	10	10	
Urgut	47	41	6
Tayloq	13	9	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 243 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,0 %), Urgut 47 ta (8,3 %), Samarqand 40 tani (7,1 %). Eng kamlari esa Narpay 4 ta (0,7 %), Paxtachi 9 ta (1,6 %), hamda Nurobod 10 tani (1,8 %) tumanlariga to`gri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




2020- yil 1-noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,3 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,5 %), Samarqand (7,4 %), Payariq va Ishtixon (5,4 %), Kattaqo'rg'on (5,0 %), Toyloq (4,2 %), Bulung'ur va Oqdaryo (3,9 %), Jomboy (3,8 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,4 %), Narpay (3,3 %), Nurobod (2,9 %), Paxtachi (2,5 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (24,8 %), Pastdarg'om (8,1 %), Urgut va Samarqand (8,0 %), Ishtixon (6,1 %), Kattaqo'rg'on (6,0 %), Bulung'ur (4,9 %), Payariq (4,8 %), Jomboy (4,5 %), Toyloq (4,3 %), Oqdaryo (4,0 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,9 %), Narpay (3,4 %), Nurobod (3,3 %), Qo'shrabot (3,0 %) va Paxtachi (2,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (36,2 %), Urgut (8,1 %), Samarqand (7,7%), Pastdarg'om (7,3%), Kattaqo'rg'on (5,3 %), Payariq (4,7 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,5 %), Oqdaryo (3,7 %), Jomboy (3,6 %), Ishtixon va Bulung'ur (3,5 %), Nurobod (3,3 %), Toyloq (2,9 %), Qo'shrabot (2,1 %), Paxtachi (2,0 %) va Narpay (1,4 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



15



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (21,3 %), Samarqand (13,9 %), Pastdarg'om (10,8 %), Urgut (8,1 %), Payariq (7,8 %), Kattaqo'rg'on (6,5 %), Jomboy va Toyloq (5,9 %), Narpay (4,4 %), Oqdaryo (4,0 %), Ishtixon (3,9%), Bulung'ur (3,5 %), Kattaqo'rg'on shahar (2,1 %), Paxtachi (1,0 %), Qo'shrabot (0,7 %) va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a menu titled "RASMIYIY STATISTIKA" with various links like "El'on qilish taqvim", "Metama'lumotlar", etc. The central part shows a search form for "Klassifikator" (Classification code) with fields for "STIR kodini kiritning" (Enter STIR code) and "Rasmidagi kodni kiritning" (Enter code from document). A dropdown menu is open over the search form, listing options such as "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdirm ettiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Ahollini ro'yxtatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", etc.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo`limi**
Tel.: 66 235-14-42